KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA NISBATAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Samarqand davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va texnologik ta'lim kafedrasi v.v.b dotsenti: FOZILOV BEXRUZ QOSIMOVICH

Samarqand Davlat Pedagogika instituti "Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim)" yo'nalishi magistranti:

SAYFIYEVA UMIDA AKMALOVNA

Anotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi fanida kasb-hunarga yo'naltirish darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning mazmuni, metodikalari va zamonaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Zamonaviy, Innovatsiya, texnologiya, darsning tuzilishi, axborot-kommunikatsiya, rivojlantirish, qiziqish, kasbiy samaradorlik, pedagog, individual.*

Аннотация: *В статье анализируются содержание, методы и современные возможности организации уроков профессиональной ориентации в сфере технологического образования в общеобразовательных школах на основе инновационных технологий.*

Ключевые слова: *современность, инновации, технологии, структура урока, информация и коммуникация, развитие, интерес, профессиональная эффективность, учитель, личность.*

Abstract: *This article analyzes the content, methods and modern possibilities of organizing vocational guidance lessons in technology education in general secondary schools based on innovative technologies.*

Keywords: *Modern, innovation, technology, lesson structure, information and communication, development, interest, professional effectiveness, teacher, individual.*

KIRISH

Jamiyatning yangilanishi, hayotimizning tarakqiyoti va istiqboli, Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish - zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali kichik mutaxassis kadrlarni tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni taqazo etmoqda.

Darhaqiqat, kadrlar tayyorlash tizimi sifatini oshirish va mazmunan boyitish bugungi kunda dolzarb masalalardan ekan, bu ta’limning belgilangan vazifalaridan biri - mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish mazmuni va yo’llarini yangicha shaklda ko’rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ma’lumki, o’quvchilar mustaqil va ijodiy fikr yuritish jarayonida o’z imkoniyatlariga, bajara olish qobilyatiga tayanib, o’z fikrini bajarayotgan ishlarida va yasgan buyumlarida ifodalashga harakat qiladilar. Shunga ko’ra, mehnat talimi darslarida o’quvchilarning o’zlashtirish faolligini oshirishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ularni mantiqiy xulosalar chiqarishga undash, izchil fikr bayon qilish malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, o’qitish jarayonida o’quvchilarning o’quv jarayonida aktiv

faoliyatlarini ta’minlashga yo’naltirilgan bir qancha usullar ishlab chiqilgan: muammoli o’qitish, ishchi o’yinlar, rollarga kirib o’ynash, konteksli o’qitish va hokazo. Lekin bu usullardan keng qo’llaniladi deb aytib bo’lmaydi. Buning sababi bunday har bir darsni tayyorlash yuqori darajali mahorat, ijodiy yondoshish va ko’p vaqtni talab qiladigan pedagogik tadqiqotlardan iborat.

Tushuntirish illyustrasiyali yondoshish an’anaviy yondoshish bo’lib u asosan o’qituvchining axborot berishi va o’quvchining xotirasida olingan bilimlarni yig’ish va mustahkamlashga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu holda K.G.Markvardt (1981) g’oyasiga ko’ra “bilim” tushunchasiga xotirada saqlanadigan axborot degan ma’no beriladi. Bu bilimlarni xotirada qayta tiklash qobiliyatiga ko’ra tekshiriladi (imtihonda), ya’ni bu bilimlarni qaratilgan savolga javobni xotiradan biror bir qo’llanmasiz aytib berish tekshiriladi. Bu tizimda bilim asosan eslash natijasidir, ko’p hollarda bu formal ma’lumotlardir.

Ma’lumot beruvchi tizimda bu bilimga talab va uni aktivlik darajasiga bog’liq bo’lmagan ravishda “o’qituvchidan – o’quvchiga” tayyor bilimni bevosita berishdan kelib chiqiladi. Mos ravishda o’qituvchining asosiy vazifasi zarur axborotni berish va uni xotirada mustahkamlashdan iborat.

V. Guzev ta’kidlaydiki, an’anaviy usul uchun “o’zlashtirish” tushunchasiga qamralib qolgan o’quvchilarning holatlarini noaniq ifodalaydigan o’quv dasturi o’quvchilarni ifodalovchi o’qitish maqsadlarining noaniq tasviri xarakterlidir. O’quv jarayoni bir muncha muvoffaqiyatli o’quvchilarning tajribasini umumlashtirish asosida ko’riladi. Katta tajribaga ega bo’lgan va barcha detallarigacha ishlab chiqilgan “tushuntirish - illyustrativ

“ yondoshish ta’lim tizimida katta xizmat qiladi lekin bugungi kunda jamiyatdagi o’zgarishlar o’quvchi yoshlarga qo’ylayotgan talablar zamonaviy kadrlarni tayyorlashda jumladan Texnologiya ta’limidarslarida o’quvchilar bilim,malaka va ko’nikmalarini shakllantirishda inovasion yondashish o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida hamkorlikni ta’minlashda darslarni tizimlashtirsh texnologiyalashtirish pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish o’zining ijobiy samarasini bermoqda. Jumladan o’qitishga texnologik yondoshishning umumiy xarakteristikalarini o’qitishning reproduktiv saviyasi misolida ko’rishimiz mukin. Pedagogik texnologiyalar doirasida reproduktiv daraja uchun o’qitish aniq fikrlangan va batavsil tasvirlangan kutiluvchi natijalarni qayta tiklaydigan konveyrli jarayon sifatida ko’riladi. O’quv materiali aniq fikrlangan o’quv maqsadlariga moslashtirilgan, alohida fragment modullariga bo’lingan o’quv materialini taqdim etishning alternativ usullari hisobga olingan, har bir fragment testlar va korreksion to’ldiruvchilar bilan olib boriladi. Bu yo’nalish qiziqtiradiganlik, tortiShuvlik va o’zaro yordam elementlarini inkor qilmaydi. Shu vaktning o’zida o’qitishning borishiga reproduktiv xarakter beradi. Shuning uchun u majburiy minimal bilim, qobiliyat va ko’nikmalarni hosil qilish uchun ta’limda katta samara beradi.

O’qitishning izlanuvchi modullarining ta’lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o’zaro ta’siri shaxsning tadqiqotchilik pozitsiyasi, uning faoliyatining aktiv ijodiy xarakterlari bilan bog’liq. Bunda pedagog o’qituvchilarning o’quv faoliyatlarini rag’batlantiruvchi rahbarlik uslubini amalga oshiradi. Ularning shaxsiy initsiativalarini qo’llab quvvatlaydi, o’quvchilar o’quv faoliyatining operativ-texnik tomonlarini egallagunga qadar birinchi o’ringa mazmun va dalillarni qo’yadi. O’qitishga izlanuvchi yondoshishlarni o’z ichiga oluvchi

pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan.

1.1-jadval.

Tushuntirish-illyustrativ (an'anaviy)	Texnologik	Izlanuvchi
Axborotni o'qituvchidan o'quvchiga uzatish. Aniq bo'lmagan o'quv maqsadlari. Tayyor bilimlarni aytib berish. Ko'pincha o'quv jarayoni suhbat va aytib berish ko'rinishida amalga oshiriladi. Tasviriy va aniq bir ma'noda dogmatiklik.	O'quv jarayonini sistemali yondoshishdan foydalanib loyihalash. O'quv maqsadlarini xoxish etalonlari asosida o'quvchining kuzatiluvchi xarakatlari yig'indisi ko'-rinishida maksimal konkretlashtirish. O'quvchilarning harakatlari orqali o'qitish.	Muammoni hal qilish. O'quv tadqiqotlari. Fanlar orasidagi bog'lanish. Gipotezalarni ilgari surish va tekshirish. Modellashtirish, eksperiment. Refleksiv, tanqidiy, ijodiy fikrlash.

Informasiyani ixtiyoriy yodlash.	Xatolarni tuzatadigan teskari aloqa.	Ko’p kriteriyalilik dalil isbotlar.
Asosiy kuch axborotni xotirada eslab qolish, yig’ish va mustahkamlashga qaratiladi.	SHakllantiradigan va natijaviy baholash.	Echimni qabul qilish.
Asosiy bilish bosqichlarini bir-biri bilan yagona sistemada etarli darajada bog’lanmagan alohida fanlar tashkil etadi.	Mezoniy nazorat (testlash)	SHaxsiy mohiyatni, mazmun-ni izlash.
Darslar akademik (asosan) xarakterga ega va u mutaxassisning kelajakdagi faoliyati bilan etarli darajada bog’lanmagan	Bilim va ko’nikmalarni to’liq egallash.	Odoblilik, ma’naviylik, sotsial javobgarlilik, intellektuallikni oshiruvchi yangi tartib qoidalarni idrok bilan qabul qilish.
	Rejalashtirilgan natijalarni kafolatli egallash.	
	O’qitishni samaradorligi.	

XULOSA

Darslarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga nisbatan zamonaviy yondashishda umumlashgan pedagogik texnologiyalar malum psixopedagogik asoslardan iborat «sintetik nazariya» sifatida qaraladi (1.2-jadval).

Tadbiqiy pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik jihatdan hal etishga qaratiladi.

Bugungi kunda shaxsiy faoliyatli yondoShuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal eta olish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlik qilishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga ehtiyoj yuzaga kelmoqda (1.2-jadval).

Shunday qilib, ilgaridan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metodlar tizimi, ta'limning metodik usullari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari, vositalari, o'quvchilarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadi hamda yakuniy natijalarga erishish instrumentariysini mujassamlashtiradi.

1.2-jadval

Pedagogik texnologiya nomlanishi	Maqsadi	Mohiyati	Mexanizmi

Muammoli o'qitish	Ta'lim oluvchilarning bilish faolligi va ijodiy mustaqilligini oshirish	Ta'lim oluvchilarga ketma-ket va maqsadli ravishda ularning bilimlarni o'zlashtirish faolligini oshirishga xizmat qiluvchi masalalarni berish boorish	Tadqiqotchilik metodlari; bilish faoliyatiga yo'naltirilgan masalalarni echish
Mujassam-lashtiril-gan o'qitish	Insonning his qilish xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta'lim jarayon tuzilmasini yaratish	Mashg'ulotlarni bloklarga biriktirish hisobiga fanlarni chuqur o'zlashtirishga erishish	Ta'lim oluvchilar ish qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim metodlari
Modulli o'qitish	Ta'lim mazmunini shaxs individual ehtiyojlari va uning bazaviy tayyorgarligiga muvafiqlashtirish	Ta'lim oluvchilarning individual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlashi	Muammoli yondaShuv, ta'limni amalga oshirishning individual maromi

Rivojlan-tiruvchi o’qitish	Shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish.	O’quv jarayonini insonning potensial imokniyatlari va ularni amalga oshirishga yo’naltirish	Ta’lim oluvchilarni faoliyatning turli sohalariga jalb qilish
Differe n-siallashga n o’qitish	Layoqat, qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash uchun qulay sharoitlar yaratish	Turli o’zlashtirish darajalari bo’yicha majburiy meyor (standart) dan kam bo’lmagan hajmdagi dastur materialini o’zlashtirish	Individual ta’lim metodlari
Faol (majmua-viy) o’qitish	Ta’lim oluvchilar faolligini tashkillashtirish	Bo’lajak kasbiy faoliyatining predmetli va ijtimoiy mazmunini modellashtirish	Faol o’qitish metodlari Ta’lim oluvchilarni ijodiy faoliyatiga jalb etilishining o’yin metodlari
O’yinli o’qitish	Bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo’lishini	O’quv axborotlarini qayta ishlash va o’zlashtirishga yo’naltirilgan mustaqil bilish faoliyati	

	taminlash		

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasbhunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 avgustdagi 425-sonli Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022 y., 09/22/425/0712-son)

2. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma.T.2003 yil.

3. Khimmataliev D.O., Khakimova M.F., Beknazarova Z.F., Abdullayeva R.M., Minlishev R.Z. Formatuon of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019.422-424.

4. Abdullayeva R.M. REQUIREMENTS FOR CHOOSING A PROFESSION. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.269 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. 2150- 2153.

5. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi . Darslik. T. 2018. 176 b.

6. Abdullayeva R.M. Yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish ijtimoiy voqelik sifatida. Journal of Advanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 11 | Nov - 2022 ISSN: 2181-2608. 436-438 b. www.sciencebox.uz.